

HAYOTIY XULOSALAR – O‘Z-O‘ZINI ANGLASH YO‘LIDA**Chorshanbiyeva Dilnoza Ilhom qizi***IZLANUVCHI: Surxondaryo viloyati Bandixon tumani 26-maktab 7-D sinf o‘quvchisi***Voxobov To‘rabek Toshmurod o‘g‘li***ILMIY RAHBAR: rus tili fani o‘qituvchisi**E-mail: voxobovturabek1@gmail.com*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada 3 kichik hayotiy xulosalar jamlangan: qizlar va ilm-fan yoxud yoxud Bilimli ayol – yorug' kelajak tarbiyachisi, eng yaxshi o‘qituvchim va o‘gay ona. Maqola keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

KALIT SO‘ZLAR: Ayollar, ilm-fan, dolzarblik, qiz bola, jamiyat, eng yaxshi o‘qituvchi, o‘gay ona.

АННОТАЦИЯ: Эта статья содержит 3 небольших жизненных вывода: женщины и наука или Образованная женщина - воспитатель светлого будущего, мой лучший учитель и мачеха. Статья предназначена для широкого круга читателей.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Женщины, наука, актуальность, девочка, общество, лучший учитель, мачеха.

ANNOTATION: This article summarizes 3 small life conclusions: women and science or An educated woman is the educator of a bright future, my best teacher and stepmother. The article is intended for a wide readership.

KEYWORDS: Women, science, relevance, girl, society, best teacher, stepmother.

Ayollar va ilm-fan yoxud Bilimli ayol – yorug' kelajak tarbiyachisi.

Qizlarni ilm fanga qiziqtirish bu oddiy masala emas, balki dolzarb masalalardan biri hisoblangan. Lekin ba‘zi bir insonlar aytishadi "qiz bolani o‘qitib nima qilasan?" deb, lekin bu narsa mutlaqo noto‘g‘ri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 41-moddasida aytilgan: Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. [1]

Ba‘zi bir ota onalar borki, "o‘qib olamni olib berasanmi?" deyishadi. Bu ham noto‘g‘ri ma‘lumot. Axir qiz bola odam emasmi u ham ilm olish huquqiga ega. Axir «Qiz farzandni, onani o‘qitsak, jamiyatni o‘qitgan bo‘lamiz, «Bolalarni kim tarbiya qiladi? Albatta, ayollar. Shuning uchun biz qizlarimizni, onalarimizni o‘qitishimiz kerak. Shunda jamiyatni o‘qitgan bo‘lamiz» - degan edilar yutboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. [2]

Nahotki, shu gapga hech kim ishonmasa axir ayol kishi o'qisa, kelajakda farzandlariga tarbiyani yaxshi beradi va jamiyatda o'z o'rnini topa oladi, hech qachon shu gaplarni esingizda chiqarmang aziz va buyuk insonlar.

Eng yaxshi o'qituvchim

Assalomu alaykum hurmatli o'quvchilar. Men sizlarga bir maqola tayyorlagandim bu maqolani yozishdan maqsadim har bir o'quvchining yaxshi ko'rgan o'qituvchisi ya'ni ustoz bo'ladi. Har bir o'quvchi u zotni hurmat qilishi kerak deb o'ylayman. Men O'zimning hayotimdan kelib chiqqan holatda shu maqolani yozdim, o'ylaymanki yaxshi Xulosa chiqarasizlar degan umiddaman. Alloh barchamizni o'z panohida asrasin.

Mening eng yaxshi ko'rgan menga yoqadigan mehribon bir ustozim bor u kishi juda mehribon halol inson. U hammaga yaxshilik qiladi. Bu o'qituvchim Rus tili fanidan dars beradi. Dars o'tishi juda yaxshi har bir so'zida hikmat bor u kishining gaplari meni dunyo qarashimni o'zgartirdi. U ustozimizni hamma o'quvchilar yaxshi ko'radi. Ustozimiz juda oq ko'ngil inson. Men hayotim davomida bunday ustozni uchratmagan edim. To'g'ri uchratganman lekin bunday samimiy ustozni birinch ko'rishim. U juda yaxshi dars o'tadi ustozimizning har bir gapida ma'no bor. Har bir inson hayotida eng yaxshi ustoz bo'ladi shuning uchun ularni qadrlashimiz kerak. Ustozlar doim bizni o'ylaydilar shular o'qisin deyishadi lekin shunday yaxshi ustozlarning qadriga yetmaydigan, o'quvchilar ham bor, ular buni tushunishmaydi. Qaniydi hozir men yozayotgandek ustozlar ko'p bo'lsa ammo bunday o'qituvchilar hozirgi kunda kam.

Shunday ustozlar borki baholashga, tarif berishga til ojizlik qiladi. lekin ayrim o'qituvchilar bor faqat o'zini o'ylaydi. Darsida telefon ko'radi ba'zilar, ba'zilar esa darsdan chiqib ketib shu bilan tanaffusda kelishadi yoki shunda ham kelishmaydi. Bunday o'qituvchilarning qanday qilib vijdoni qiynalmaydi? deb o'ylab qolaman, axir ularning ham farzandlari bor ularga ham bironta ustoz shunaqa qilsa, o'zlari chiday oladimi? Javob kundek ravshan: Yo'q, chiday olishmaydi. Axir o'quvchilar ham birovning bolasiku nahotki shuni ular tushunmasa. Axir bu dunyo qaytar dunyo.

Ba'zi ustozlar bor men ularga havas qilaman ular juda yaxshi ustozlar men aytayotgan ustoz ham shular jumlasidan. xullas har bir inson xudo bergan narsani qadrlashni bilishi kerak qadrlashi kerak.

XULOSA

Bu mavzudan maqsadim yuqorida aytib o'tganimdek har bir narsaning qadriga yetish edi. Sizlar ham o'qituvchi bo'lishni xoxlasalaringiz. Ustozlaringizni hurmat qilishni ularni gaplariga kirishni o'rganing axir ustoz bo'lsangiz ustozingizga qanday munosabatda bo'lgan bo'lsangiz kelajakda o'quvchilar ham sizga shunday munosabatda bo'ladi. Shunday ekan ustozlaringizni asrang sizga bu imkoniyat boshqa berilmaydi ustozingizni ko'nglini

og'ritmang bu maqolamdan yaxshi Xulosa chiqarish o'zingizga bog'liq aziz o'quvchilar!
Quyida ustozlar haqidagi hikmatlar bilan tanishamiz:

USTOZLAR HAQIDA HIKMATLAR

Muallim so'zi go'yo oqar suv erur,

Suv oqsa, yer uzra ko'p ne'mat unur.

(Yusuf Xos Hojib)

Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir.

(Islom Karimov)

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganj ila.

(Alisher Navoiy)

Ustoz-muallimsiz qolganda zamon?

Nodonlikdan qaro bo'lardi zamon.

(Abdurahmon Jomiy)

Hayot yo'lida birinchi masala - maktab masalasidir.

(Fitrat)

Sizdan boshlanadi asli tafakkur,

Munis muallimlar, sizga tashakkur!

(Abdulla Oripov) [3]

She'r. Muallif: Chorshanbiyeva Dilnoza

Sizga rahmat ustozim mehringiz uchun!

Siz ochgansiz qalbidagi tong-u saharni, Sabr bilan yo'qotgansiz g'am-u zaharni

Qalblarga baxsh etib bol-u shakarni, Sizga rahmat ustozim mehringiz uchun!

Siz yuragim ichra chiroq yoqdingiz, Har bir orzum sari qanot bo'ldingiz

Bizni o'ssin degan bog'bon edingiz, Sizga rahmat ustozim mehringiz uchun!

Siz bergansiz bilimning har tomchisini, O'rgatgansiz ma'naviyat elchisini

Aytajakman fikrim jamlab barchasini: "Sizga rahmat ustozim mehringiz uchun!"

O'gay onalar.

Assalomu alaykum hurmatli insonlar! Bugungi maqolamiz o'gay onalar haqida bo'lishini istadik, o'ylaymanki yaxshi Xulosa chiqarasizlar nasib bo'lsa. Chunki har bir ona bu maqoladan keyin o'zgarishini istardim.

Bu dunyoda onasi yo'q inson qancha ular o'gay onaning qo'lida qolishgan. Ayrimlari esa mehribonlik uylarida mehrga zor o'sishyapti. Bugungi kunga kelib bunday o'gay onalarning yaxshisini ham yomonini ham uchratish tabiiy holat. Lekin o'gay onalarning ko'pi yomon bo'ladi bolalarni o'z bolasiday ko'rmaydi ularni azoblashadi. Axir u norasida go'dak va

bolalarda nima ayb ularning aybi shu dunyoga kelganimi yoki onasi yo'qligimi? Axir ular ham mehr olishga haqqi borku, nahotki, shuni o'gay onalar tushunishmasa?! Axir ular nega o'z bolasiday yaxshi ko'rmaydi nima u bolaning kasali bormi uning ham ikkita qo'li ikkita oyog'i ikkita ko'zi borku. Kasal bo'lsa ham qarab voyaga yetkazib qo'ysa, buning uchun Allohdan savob umid qilsa bo'lmaydimi? O'gay onalar bunday ishlarni qilayotganidan vijdoni qiynalmaydimi?! Ertaga narigi dunyoda qanday qilib javob beradi bu ishiga. Ular bugungi kunni o'ylashadi, ertangi kun bilan esa mutlaqo ishi yo'q O'gay onalar faqat hozir yashab turgan dunyosini o'ylashadi, oxiratini emas. Axir bolalarga o'z bolasidek qarasa osmon uzilib yerga tushmaydiku, nahotki shuncha azoblash qo'lidan kelgan, bir mehr berib shirin so'z aytish qo'lidan kelmasa?! Afsus, ming afsus. Bunday insonlarga gapirishning hajati yo'q bizning qo'limizdan hech narsa kelmaydi, chunki biz bir ojiz bandamiz xolos, duo qilishdan boshqa ilojimiz yo'q. Barcha bunday onalarga Alloh insof, vijdon bersin, ularni deb yetim bolalar ko'z yosh to'kmasin.

Xulosa

Bu maqoladan xulosa chiqarish har bir o'gay onaning o'zida. Lekin bu maqolani o'gay onalar o'zgarishi uchun yozgandim. O'zgarsinlar, faqat yaxshi tarafga sizlarni hech kim yaxshiligingiz uchun o'zgartira olmasin. Shunday bo'ladi degan umiddaman, inshaalloh.

O'gay ona azoblari.

(Ayrim o'gay onalarga bag'ishlanadi).

Doim turtib turaverar

Ham baqirib uraverar

Yaqin kelsa suraverar

Eh, bag'ritosh o'gay ona...

Go'dak bag'rini tilar

Turli bahona qilar

O'zin Xojadek bilar

Eh, beshafqat o'gay ona...

Rangi ham ola-bula

O'gay deb turtgan bola

Kimga ham qilar nola?

Eh, berahm o'gay ona...

Xudodan ham qo'rqmas u,

Vajohatdan qaytmas u,

Hech shirin so'z aytmas u

Eh, bemehr o'gay ona...

"Erkam..." deya quchmaysiz,
Shodon baxtdan uchmaysiz,
Murg‘ak qalbdan o‘chmaysiz,
Eh, yuraksiz o‘gay ona...
Mualif: Bo‘stoniy.

FOYDALANILGAN ELEKTRON RESURLAR

1. <https://lex.uz/acts/-20596#:~:text=41%2Dmodda,.lim%20olish%20davlat%20tomonidan%20kafolatlanadi.>
2. <https://www.kun.uz/news/2022/12/29/qiz-farzandni-onani-oqitsak-jamiyatni-oqitgan-bolamiz-shavkat-mirziyoyev>
3. <https://m.ok.ru/group/54927872163843/topic/152659527862275>